3.3. Kesuvchi asbobni bayoni va xisobi.

Mustaxkamligi $\sigma = 750 \text{ MPa} (75 \text{ kZc/mm}^2)$. Zagotovka diametri $D=120 \text{ mm}$, ishlov berish uchun qo'yim miqdori $h=2 \text{ mm}$, surish miqdori $S=0.6 \text{ mm/ayl}$, keskichni tayanch qismidan chiqib turgan qismi $l=20 \text{ mm}$.

Echish. 1. Keskichni dastagini materiali uchun uglerodli po'latni qabul qilamiz. Po'lat 50 $\sigma = 650 \text{ MPa} (65 \text{ kZc/mm}^2)$ ruxsat etilgan egilishdagi kuchlanish $\sigma = 200 \text{ MPa} (20 \text{ kZc/mm}^2)$

2. Kesish kuchini ((1) dan, 12 misolda keltirilganda aniqlab olamiz).

$$P_z = C_{p_z} \cdot t^{x_{p_t}} \cdot S^{y_{p_z}} \cdot K_{p_z} = 9.81 \cdot 300 \cdot 2^1 \cdot 0.60^{0.75} \cdot 0.95 = 3812 \text{ H} \approx 400 \text{ kgs}$$

Bu yerda $K_{p_z}=1$ yig'ma to'g'irlash koeffitsienti.

3. Keskichni to'g'ri burchakli kesish uchun eni $n=1.6v$ shart uchun aniqlaymiz.

$$b = \sqrt[3]{\frac{6P_z l}{2.56\sigma_k}} = \sqrt[3]{\frac{6 \cdot 400 \cdot 20}{25.6 \cdot 20}} = 4.5 \text{ mm.}$$

4. Standart STSEV153-75, (1) 20bet 28 jadvaldan keskich dastagini kesimini eni katta qiymatini qabul qilamiz. $b=16 \text{ mm}$, yuqorida keltirilganga asoslanib keskich dastagini balandligini topamiz.

$$h = 1.6 \cdot b = 1.6 \cdot 4.5 = 7.2 \text{ mm.}$$

$h=8 \text{ mm}$ qabul qilamiz.

5. Keskich dastagini mustaxkamligini va qattiqligini tekshiramiz.

a) Kesgich mustaxkamligiga ruxsat etilgan yuklanish.

$$P_{Z_{ppyxca}} = \frac{BH^2 \cdot \sigma_e}{6 \cdot l} = \frac{4.5 \cdot 8^2 \cdot 20}{6 \cdot 20} = 216 \text{ kZc}$$

b) keskichni qattiqligiga ruxsat etilgan yuklanish.

$$P_{Z_{ATII}} = \frac{3fEj}{l^3} = \frac{3 \cdot 0.1 \cdot 20000 \cdot 20800}{20^3} = 15600 \text{ kZc}$$

Qirquvchi keskichning oldingi yuzasi bo'yicha ko'ndalang kesimining hisoblash sxemasi.

Bu yerda $f=0.1 \cdot 10^{-3}$ (0.1 mm) qora yo'nib ishlov berishdagi keskichni strukturasi qo'yilgan ruxsat egilish; $Ye=2 \cdot 10^5 \text{ MPa}=20000 \text{ kgs/mm}^2$.

Keskich dastagi materialini modul uprugosti; $l=60$ mm—keskich vileti; o-keskich dastagini to'g'ri burchakli kesmi uchun inertsia momenti;

$$J = \frac{bh^3}{12} = \frac{4,5 \cdot 8^3}{12} = 192_{\text{mm}^3}$$

Keskich kerakli mustaxkamlikka va qattiqlikka ega, chunki $P_z \triangleright P \triangleleft P_{z_k}$

Keskichni konstruktiv o'lchamlari st. SEV 190-75 bo'yicha qabul qilinadi.

a) Keskichni umumiy uzunligi $L=140$ mm.

b) keskichni cho'qqisidan yon tomoni ni yuzasini bosh kesuvchi qirrasini yo'nalishi bo'yicha oraliq masofasi $h=6$ mm.

v) Keskichni bosh kesuvchi qirrasini radiusi $R=0.4$ mm.

g) Qattiq qotishma plastinkasi $l=16$ mm; plastinka shakli № 0239A, GOST 2209-82 bo'yicha. Keskichni kesuvchi qismini geometrik parametrlarini 18-karta ((2) ma'lumotnomadan 188,189) betidan tanlab olamiz.

7. GOST 5688-61 bo'yicha qabul qilamiz:

a) Keskichni kesuvchi qismini oldingi va orqangi yuzalarini va dastagini tayanch yuzalarini sifatini g'adir-budirliklarini qabul qilib olamiz.

b) Keskichni gabarit o'lchamlarini chegaraviy og'ishlarini qabul qilib olamiz.

v) Qattiq qotishma plastinkasini va dastagini materialini markasini tanlab olamiz.

g) Tamg'a bosiladigan joyni yuzasini belgilanadi.

8. Keskichni ishchi chizmasini eskizi barcha texnik talablari bilan chiziladi.

1. Keskichning kesuvchi qismining materiali-T15K6

2. Kovsharlovchi element—Медь М3.

3. Keskich dastagining materiali—po'lat 50.

4.IQTISODIY QISM.

Sex bo'limlarida texnologik jarayonlarni loyihalashda uning samaradorligini aniqlaydigan asosiy ko'rsatkich bu ishlab chiqarilgan maxsulot tannarxi hisoblanadi.

1.Yillik ishlab chiqarish dasturi;

$N=15000$ dona

2. Bajarilgan operatsiya uchun sarflangan mehnat xajmi (donabay yoki donakalkulyasiya vaqti), $t_{dk}=3,49$ daq

3.Ishlatilayotgan dastgoh modeli; Tokorlik dastgohi
1K62

4.Preskurant bo'yicha bahosi; $K_{pr}=17200000$ so'm

5.Yuklanish koefitsenti; $K_{yu}=0,39$

6.Asosiy vaqt bo'yicha foydalanish koefitsenti; $K_a=0,297$

7.Berilgan operatsiya uchun ishchi toifasi; 3

8.Aniqlangan toifa uchun soatlik tarif stafkasi; $C_i=1220$ so'm/soat

Berilgan texnologik operatsiyani bajarish uchun sarflangan keltirilgan sarfxarajatlar quyidagi formula bilan aniqlanadi;

Moslama; $Z_1=S_1+E_H K_C=143+0,15 \cdot 25,6=146$ so'm

Moslamasiz; $Z_2=S_2+E_H K_C=123+0,15 \cdot 25,6=126$ so'm

Bu yerda:

Z-detal operatsiya uchun sarflangan keltirilgan sarfxarajatlar. So'm

C-Berilgan operatsiya texnologik tannarxi so'm;

E_H -Kapital qo'yimlarni,normativ samadorlik koefitsenti $Ye_H=0,15$

K_C -Bitta detal operatsiyaga to'g'ri keladigan solishturma kapital qo'yimlar,so'm

Quyidagi fo'rmuladan aniqlanadi.

$$K_C=K/N=8892400/15000=592 \text{ so'm}$$

Bunda:

K-berilgan variantga sarflangan kapital qo'yimlar,so'm

Yillik ishlab chiqarish dasturi; N=15000 dona

Kapital qo'yimlarga asosan, dastgohlar uchun sarf-xarajatlar kiradi.

Taxminiy hisoblarda ishlab chiqarish maydonlari uchun sarf-xarajatlar nisbatan ozligi uchun hisobga olinmaydi. Shu sababli detal operatsiya uchun kapital qo'yimlarni aniqlashda dastgohni berilgan operatsiya bilan bandlik koefitsenti ni aniqlash kerak bo'ladi. Bu koefitsent dastgohni shu operatsiya bilan yuklanish koefitsenti K_{yu} ga bog'liq. Agar $\mu=0.85 \dots 1$ bo'lsa, koefitsenti $K_{yu} < 0.85$ bo'ladi, agar $K_{yu}=0.85$ bo'lsa, dastgoh boshqa detallar bilan qo'shimcha yuklanadi va μ ni quyidagicha aniqlanadi:

$$\mu = K_{yu} / K_h = 0,39 / 0,8 = 0,48$$

bunda:

K_h - normativ yuklanish koefitsenti; $K_h = 0.8$

Dastgohni pereskurant bo'yicha bahosini K_{np} deb belgilab, uni tashish va montaj qilish uchun sarf xarajatlarni 10% miqdorida aniqlangan xolda, berilgan detal operatsiya uchun kapital qo'yimlarni quyidagicha aniqlanadi.

$$K = 1,1 \mu K_{np} = 1,1 \cdot 0,48 \cdot 17200000 = 8892400 \text{ so'm.}$$

Operatsiyani texnologik tannarxi C quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$C_2 = (t_d / 60)(C_p + H_c) = (3,31 / 60)(2196 + 268) = 123 \text{ so'm}$$

Bunda:

t_d - dona-kalkulyasiya vaqti. Min

C_p - dastgoh ishchisini bir soat ish vaqti ucun to'lanadigan ish xaqi, so'm

H_c - dastgohni bir soat ishi uchun sarflanadigan sarfi, so'm

Dastgoh ishchisini ish xaqi quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$C_p = 1.8 C_{CH} = 1,8 \cdot 1220 = 2196 \text{ so'm}$$

Bunda:

C_{CH} - berilgan toifadagi ishchini soatli tarif stafkasi, so'm (4-jadval)

1,8-qo'shimcha to'lovlar va sotsial sug'urtani hisobga oluvchi koefitsent (40%, mukofatlar, 40% sotsial sug'urtaga ajratmalar).

Dastgoxni bir soat ishiga to'g'ri keladigan sarf-xarajatlar quyidagi empirik formuladan aniqlanadi;

$$H_c = a \cdot 10^{-3} \times K^{0,75} = 1,65 \cdot 0,001 \cdot 8892400^{0,75} = 268 \text{ so'm}$$

Bunda:

a-ishlab chiqarishni xarakterini va dastgoh ekspluatatsiyasi xarajatlarini hisobga oluvchi koeffitsienti;

K-berilgan dastgoxga sarflangan kapital qo'yimlari, so'm.

Seriyalab ishlab-chiqarishda dastgox va moslama ekspluatatsion xarajatlarni hisobga olganda $a=1,65$;

Agar hisoblarda moslamani ekspluatatsiyasi uchun sarflangan xarajatlar hisobiga olinmasa $a=1,22$. Dastgox qo'shimcha qurilmalar, maxsus jixoz yoki moslamalar bilan jixozlangan variantni texnologik tannarxi hisoblanganda, ushbu moslama yoki qurilmani 1 soat ishiga to'g'ri keladigan sarf-xarajatlar hisobiga olinadi, u quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$H_{pr} = 0,18 \cdot 10^{-3} C_{pr} = 0,18 \cdot 0,001 \cdot 55000 = 9,9 \text{ so'm}$$

Bunda:

C_{pr} -qurilma yoki moslamani tayyorlash uchun sarflangan xarajatlar, so'm(6-jadval).

U holda operatsiyani texnologik tannarx quyidagicha aniqlanadi;

$$C_1 = t_d / 60 (C_p + H_c + H_{pr}) = (3,49 / 60) (2196 + 268 + 9,9) = 143 \text{ so'm}$$

Qoplash muddati:

$$Eg = \frac{(3_1 - 3_2)}{N} \cdot 100\% = \frac{(146 - 126)}{15000} \cdot 100\% = 0.13 \text{ yil qoplaydi}$$

Ishlash variantlarini iqtisodiy asoslash.

7-jadval

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar nomi	Belgila nishi	O'lc hov birligi	Natija	
			Jixozs iz	Jixoz bilan birga
I.Boshlang'ich ma'lumotlar				
1.1. Donaviy (dona kalkulyatsiya) vaqti	t_d	Min		3,49
1.2. Ishning toifasi (razryadi)			4	3
1.3.Dastgox ishchisi ish haqi,so'm/soat	C_l	So'm soat	1440	1220
1.4.Dastgox yuklanish koefitsienti	K_y			0,39
1.5. Dastgox bandlik koefitsienti				0,297
1.6.Kapital qo'yimlar miqdori	K	So'm		8892400
1.7.Nostandart jixoz (moslama) ga qo'shimcha sarf xarajatlar	C_{pr}	So'm		55000
II.Texnologik tannarxhisobi		So'm		

2.1.Dastgox ishi uchun sarfxarajatlar	H_c	So'm		268
2.2.Nostandart jixozni ishi sarf- xarajat	H_{pr}	So'm		9,9
2.3. Operatsiya uchun texnologik tanarx	C	So'm	143	123
Solishtirma kapital qo'yimlar	K_c	So'm /dona		592
2.5 Keltirilgan sarf harajatlar	Z	So'm	146	126

5.MEHNAT MUHOFAZASI QISMI.

5.1.Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining ta'rifi

Loyihalanayotgan ishchi joyini mehnat sharoitlarining tarifi va tahlili texnologik jarayonning qisqa tarifi va ishchilar mehnat tarifi.

Detalga ishlov berish jarayoni GOST 123-002-85 bo'yicha ishchilar mehnatini xavfsizlik sharoitlarini inobatga olgan holda tuzilgan texnologik jarayon metal qirqish dastgohlaridan iborat bo'lgan ishlab chiqarish tizimidir.

Dastgohlarda moslanib va kesuvchi asboblardan taminlangan. Bu dastgohlar universal va yarim avtomatlardir. Jarayonda detal bitta dastgohdan ikkinchi dastgohga qo'l yoki mahsus qurilma uzatib berilishi mumkin. Bo'limda mavjud bo'lgan xavfli moddalar CNiP-93 normativlari bilan meyorlangan. Ishchi joylarini yaxshilash uchun bo'limda issiq suv, ichimlik suvi dam olish joylari ko'zda tutilgan.

Ishlov berish vaqti ajralib chiqqan chiqindilar yer ostidan konveyer yordamida tashqariga olib tashlanadi.

Yong'inni oldini olish uchun signalizatsiya, yong'in shiti yong'in gidranti mavjud. Sex bir etajli binoda joylashgan bo'lib, svetaeratsion fanarlar, ventilyatsiya va tabiiy yorug'lik bilan taminlangan. Havfli zonalarning hammasini atrofi o'ralgan. Dastgohlar maxsus fundamentga o'rnatilgan.

Bo'limda zaruriy elektr xavfsizlik qoidalari ko'zda tutilgan. Texnologik jarayonni mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash.

Tehnologik jarayonni mexanizatsiyalash va avtomatizatsiyalash mehnat sharoitini yengillshtiradi. Mexnat sig'imi va yordamchi vaqt ham kamayadi. Shuning uchun zagatovka sexda va tashqaridan transportyor yordamida tashiladi. Osmo kran yordamida dastgohlar montaj va demontaj qilinadi. Chiqan chiqindilar yer ostidan konveyer yordamida olib tashlanadi.

Qo'llanilgan moslamalar iloji boricha mexanizatsiyalashgan. Og'ir yuk va dastgohlarni ko'chirish uchun kranbalka qo'llaniladi.

Loyihada havfli va zararli omillar mavjud. Zararli omillar birinchi mexanik ishlar berishdagi, yani kesib ishlashdagi ajraladigan chang, tovush, vibratsiyadir.

Chang odamning organizmiga kirib nafas olish yo'llarini kasallantiradi va ko'z pardasini ishdan chiqarishi mumkin. Vibratsiya, yani tebranish tufayli professional kasalliklar paydo bo'ladi. Chiqadigan tovush odamning miyasiga tasir etib uni charchatadi va malum kasalliklarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Xavfli omillar bu metalga ishlov bergan vaqtda strujka, asbob sinig'lari uchib odamga jarohat qilishi mumkin. Bundan tashqari xavfli omillarning biri elektr toki. Chunki xamma jihozlar elektr toki bilan ishlaydi.

Bo'limda o'tish va transportda o'tish yo'llari ham mavjud, ular meerga qaraganda, yo'llar-2000 mm, a o'tish joylari va dastgohdan 800-1200 mm teng bo'lishlari shart. Ularni soni texnologik jarayon katta –kichikligiga qarab olinadi. Odamni o'lchovi 800 mm olinadi. Odam va stanok orasidagi masofa 1500 mm qilib olinadi.

5.2. Ishlab chiqarish joyidagi yoritilish tizimini tanlash

Sanoat tarmoqlariga yoritilganlik normalariga mos holatda korxonaga uchun yoritilish tizimini tabiiy va suniy yoritilish olinadi.

Loyihalana yotgan bo'limda tabiiy va suniy yorug'lik ko'zda tutilgan.

Tabiiy yoritilish oynak va fonarlar orqali bajariladi, TEK me yori 0,1-10% olinadi. Suniy yoritilish esa gazorazryadli lampalar orqali amalgam oshiriladi. Bu lyuminesentli lampalardir. Normal ish sharoitini taminlash uchun CN va P11-4-79 dan foydalanib hisob kitob qilinadi.

Yoritilish oqimidan foydalanish ko'rsatgichiga asoslangan hisob kitob shuni ko'rsatdi, kerakli nur oqimi $F_1=5220$ lm bo'lishi kerak.

Bo'limda talab etilgan yorug'lik o'rtachasi 300 lkga teng. Lampalar sonini quyidagicha topamiz:

Gigienik talablarga asosan bitta ishlovchiga malum inshootni hajmi va maydoni belgilanadi. Shuning uchun har bir ishchiga KMK bo'yicha $20m^2$ maydon va $80m^3$ bino hajmi ajratilgan.

$E_n = 300$ lk –yoritilish bo'lishi kerak.

$S=270$ m³-yoritilish maydoni

$K=1,6$ -koeffitsienti

Bu yerda:

$$i = \frac{a \times b}{np(a+b)} = \frac{20 \times 16}{7,7(20+16)} = 1,1;$$

$a \times b$ -proletni eni va uzunligi. $N_{pr} = n - h_c - h_{pm} = 8,6 - 0,1 - 0,8 = 7,7m$ –bino balandligi;

Fl-nur oqimi; $n = 0,41$ = koefitsienti:

$$N = \frac{E_n \cdot S \cdot K \cdot i}{F_{1n}};$$

$$N = \frac{300 \cdot 270 \cdot 1,6 \cdot 1,1}{5220 \cdot 0,41} = 68 \text{ lampa (22 yoritgich)}$$

Lyuminessentli yoritgichlar shaxmat tartibida joylashgan bo'ladi.

Avariya holatini oldini olish uchun elektr yo'llariga holdagi yoritilish ko'zda tutilishi kerak.

ChiP11-4-79 bo'yicha loyihalananayotgan inshootni tabiy yoritilganligi, yoritish tizimi va tabiy yoritilganlik koefitsientini tanlash.

Bo'limni tabiy yorug'lik uchun binoning malum joylarida yoritish proemlari mavjud. Yoritilganlik tabiy yoritilganlik koefitsienti bilan tariflanadi. Bu <C> koefitsientini ChiP11-4-71 bo'yicha 0,9 deb qabul qilamiz.

Bo'limda yorug'lik o'tkazadgan qabul madonini quyidagicha topamiz.

$$SF = \frac{S_n \cdot L_n \cdot K_3 \cdot P_0}{T_0 \cdot V_k \cdot K_\phi \cdot 100};$$

Bu yerda:

S_n -bo'lim polini maydoni; m^2

L_n -meyorlangan qiymat; KLO

K_3 -zapas koefitsienti.

P_0 -oynaklar yorug'lik tasnifi.

T_0 -yorug'lik o'tkazuvchanlik koefitsienti.

$$T_0 = T_1 T_2 T_3 T_4 T_5 = 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 1,0 \cdot 0,9 = 0,9$$

$$SF = \frac{270 \cdot 9,0 \cdot 1,5 \cdot 0,85}{0,9 \cdot 0,75 \cdot 0,8 \cdot 100} = 60,5 \text{ m}^2.$$

5.3.Ventilyatsiya tizimini tanlash

Sanoat korxonalarini loyihalashtirishdagi talab etilgan sanitar qoidalariga mos keladigan ishlab chiqarish binolari uchun muvofiq iqlimiy sharoitlarni asoslab berish.

Ishlab chiqarish korxonalarida xavoning xarorati boshqarilmasa $t=18-25\%$ dan, $t=30-33\%$ gacha ko'tarilib ketishi mumkin. Shuning uchun GOST 12.1-006-88 bo'yicha va CH 247-81 ga asoslanib optimal iqlimiy sharoitlar belgilanadi.

Qishda: $t=17-19^{\circ}$ $\varphi=40-60\%$

Yozda: $t=20-22^{\circ}$ $\varphi=40-60\%$

Ishlab chiqarish binolari uchun umumiy xavo almashinuvini quyidagicha topamiz.

$$L_{tr}=L_{vit} = \frac{Q_{izb}}{C(t_{vim} - t_{pr}) \cdot r}; \text{ m}^3/\text{soat.}$$

$$Q_{izb}=Q_{ob}+Q_p+Q_m=300000+200000+180000=500000$$

L_{tr} va L_{vit} —kelayotgan va chiqib ketayotgan havo qiymati.


t_{it} va t_{vim} —kelayotgan va chiqib ketayotgan havo xarorati.

$$L_{tr}\text{ va } L_{vit} = \frac{500000}{0,24(30 - 22)1,73} = 222000 \text{ m}^3/\text{soat.}$$


5.4. Elektr xavfsizligi

Ximoyaviy yerga ulashni qo'llash zaruratini asoslab berish. Ishlab chiqarish korxonalarida elektr toki keng qo'llaniladi. Shuning uchun elektr xavfsizligiga katta e'tibor berish kerak. Elektr zanjiri odam tanasi orqali ulanib qolsa yoki odam zanjirning ikki nuqtasiga tegib ketsa odamni tok uradi. Elektr xavfsizlik tadbirlaridan bir nechtasidan aytib o'tish mumkin, bulardan ximoyaviy yerga ulash ximoyasi, nolga ulash ximoyalari qo'llash, qo'shimcha izolyatsiyani ishlatish, ximoya to'siqlarini qo'llash.

7.1. va 7.2. rasmda yerga ulash va nolga ulash ximoyasi keltirilgan.



7.1 Rasm. Yerga ulash ximoyasini sxemasi



7.2. Rasm. Nolga ulash ximoyasini sxemasi

5.5. Yong'in xavfsizligi

Yong'in xavfsizligi imorat sexning o'tga chidamliligiga qarab sanoat kategoriyasini aniqlash.

CH i P 11-2-81 ga asosan loyihalananayotgan inshoot yong'in, portlash, yonib portlash, xavfliligi bo'yicha <D> kateegoriyaga kiradi.


Qurilish materiallari yonmaydigan yong'inga chidash bo'yicha inshoot 1-darajalidir.

Birinchi o't o'chirish vositalariga bo'lgan extiyoj. Loyihalangan bo'limda yong'in o'chish shit va birlamchi o't o'chirish vositalari mavjud. Bunda 2 dona ognetushtitel–OXP-10, va OU-5, 1 dona suvli idish, 1 ta –qumli idish, 2 ta paqir, 2 ta –lom, 1 ta- bolta, 2 ta-bagor.

O'tga qarshi suv taminoti. Loyihalananayotgan sex bo'limda suvni yig'ish, tashish, saqlash va foydalanish muhandislik qurilmasi mavjud. Bo'lim yong'in gidranti, suv hovuzchasi shlanglar bilan taminlangan.

5.6. Aloqa, yong'in signalizatsiya.

Yong'in xavfsizligi asosiy shartlarini taminlash uchun avtomatik vositalar qo'llaniladi. Bo'limda POST-1 xabar beruvchi qurilma qo'llanilgan. 20 m² maydoni nazorat qila olib, 70⁰ C ishga boshlaydi va 0,7 sekundda xabar beradi. Bundan tashqari DV-1 xabarlatgich sxemasi qo'llanilgan.



7.3. Rasm DV-1 xabarlatgichning sxemasi.

1-xabarlatgichlar;

2-qabul qiluvchi uskuna;

3-yong'in pulti.

6. “0106 Support vali” detaliga mexanik ishlov berish texnologik jarayonini va operatsiyalarda ishlatiladigan moslamalar mavzusini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o’qitish metodikasini ishlab chiqish

Prezidentimiz I.A.Karimov Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to’la ro’yobga chiqsa ijobiy ravishda portlash effekti sodir bo’lishini bashorat qilib «Tafakkur» jurnali bosh muharriri savollariga javobda shunday deydi: «Ishonchim komil agar bu islohotni amalga oshirsak tez orada hayotimizda ijobiy ma’nodagi portlash effektiga, ya’ni uning samaradorligiga erishamiz»¹.

Nazarda tutilgan vazifalar to’liq amalga oshsa:

1) ijtimoiy-siyosiy iqlimga ijobiy ta’sir qiladi va natijada mamlakatdagi mavjud muhit butunlay o’zgaradi;

2) insonning hayotdan o’z o’rnini topish jarayoni tezlashadi;

3) jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs shakllanadi;


4) ta’limning yangi modeli jamiyatimizning potentsial kuchlarini ro’yobga chiqarishda katta ahamiyat kasb etadi;

5) oldimizda turgan har qanday vazifani bajarishda maqsadlarga erishishda jamiyatimizning har bir a’zosi qo’shadigan hissa «portlash effektiga» olib keladi.

Bu jarayonda yangi pedagogik texnologiyalarning bir qancha muammolari o’z yechimini topadi. Ular ta’lim muassasalarining resurs, kadrlar va axborot bazalari yanada mustahkamlanadi, o’quv-tarbiya jarayoni yangi o’quv-uslubiy majburiyatlar, ilg’or pedagogik texnologiyalar bilan to’liq ta’minlanadi. Milliy (elita) oliy ta’lim muassasalarini qaror toptirish va rivojlantirish amalga oshiriladi. Kasb-hunar ta’limi muassasalarining mustaqil faoliyat yuritishi va o’zini-o’zi boshqarish shakllari mustahkamlanadi. Ta’lim jarayonini axborotlashtirish, uzluksiz ta’lim tizimi jahon axborot tarmog’iga ulanadigan komp’yuter axborot tarmog’i bilan to’liq qamrab olinadi.

Ta’lim texnologiyalari asosiy yo’nalishlari

¹ A. Karimov Barkamol avlod orzusi Toshkent 1998 y 41-bet



«**Pedagogik texnologiya**» tushunchasi juda keng ma'noni qamrab oladi, unga berilgan ta'riflar ham ranbarang. «Texnologiya» tushunchasi fanga 1872 yilda kirib keldi. U yunoncha-«texnos»-hunar, san'at va «logos»-fan suzlaridan tashkil topib, «hunar fani» ma'nosini anglatadi. Bu ma'noni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etib:

Texnologiya- bu bir ishda, mahorat va san'at qo'llaniladigan usullar yig'indisidan iborat.

Pedagogik texnologiya-ta'lim shakli, usuli, uslublari, tarbiyaviy vositalarning maxsus yig'ilishini aniqlovchi psixologik-pedagogik ko'rsatmalarning majmuidir.

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonini amalga oshirilishining sermazmun texnikasidir. (G. Bepal'ko)

Pedagogik texnologiya-o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish jarayonining tavsiflaridir.

Texnologiya- bu san'at, mahorat va qobiliyat, ishlov uslublarning majmuidir. (SHepel')

Ta'lim texnologiyasi-bu didaktik tizimning asosiy protsessual qismidir. (Usmonov)

Pedagogik texnologiya-bu o'quv jarayonining loyihalashtirilishi, tashkil etilishi, o'tkazilish bo'yicha barcha tavsilotlari bilan o'ylab chiqilgan jamoa pedagogik

faoliyatining modeli hisoblanadi. U o`quvchi va o`qituvchilarga qulay sharoitlar yaratishi shart. (Monaxov)


Pedagogik texnologiya-bu ta'lim shakllarini optimizatsiyasini o`ziga maqsad qilib olgan inson va texnik resurslari va ularning o`zaro ta'sirini hisobga olgan holda o`qitish jarayonini tashkil etish, qo`llash va aniqlashning hamda bilimlarni o`zlashtirishning uslublaridir. (YUNESKO)

Pedagogik texnologiya-pedagogik maqsadlarga erishish uchun qo`llaniladigan shaxsiy, intellektual, uslubiy vositalarning amal qilish tartibidir. (Klarin).

Pedagogik texnologiyaning o`qituvchi (tarbiyachi) tomonidan o`qitish (tarbiya) vositalari yordamida o`quvchilarga ta'sir ko`rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni desa bo`ladi.

Pedagogik texnologiya amaliyotga joriy etish mumkin bo`lgan ma'lum pedagogik tizimning loyihasi bo`lib hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi 3 aspektda namoyon bo`ladi:



Pedagogik texnologiya: ta'lim texnologiyasi, yangi pedagogik tajriba, yangi pedagogik texnologiya, axborot texnologiyasi, yangi tajriba, novator o'qituvchilar tajribasi, ta'lim metodlari, tarbiya metodlari kabi tushunchalarni qamrab oladi. Pedagogik texnologiya ta'lim jarayonida oldinga qo'yilgan maqsadga erishishning yo'li, instrumentariy bo'lib hisoblanadi.

Demak, pedagogik texnologiya didaktik vazifalarni samarali amalga oshirish, shu sohadagi maqsadga erishish yo'li. Hozirgi kunda pedagogik texnologiyaning quyidagi turlari mavjud.

I. Qo'llanilishiga ko'ra texnologiyalarni 3 sinfga ajratish mumkin:

- a) umumiy pedagogik texnologiyalar;
- b) xususiy pedagogik texnologiyalar;
- v) kichik pedagogik texnologiyalar, modellar;

II. Falsafiy jihatdan texnologiyalar:

- a) materialistik;
- b) idealistik;
- v) ilmiy;
- g) diniy;
- d) gumanistik;
- e) majburiy.

III. Psixik rivojlanish omili bo'yicha:

a) biogen, ya'ni insonning jipslangan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bu texnologiya asosan jismoniy tarbiya kabi fanlarda qo'llaniladi.

b) sotsiogen, ya'ni shaxsning sotsiologik ongini rivojlantirishga qaratilgan texnologiya, bular qatorida jamiyatshunoslik, huquqshunoslik, sotsiologiya, siyosatshunoslik kabi fanlarni sanab o'tish mumkin.

v) psixogen, ya'ni insoning psixologik rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi texnologiya; bular jumlasiga psixologiya, etika, estetika, ma'naviyat, ruhiyat, dinshunoslik kabi fanlarni kiritishimiz mumkin.

IV. Ilmiy tajribani o'rganish bo'yicha:

a) refleksiv, ya'ni ayrim tajribalarning shartli refleks tarzida yoki odatiy holda bir avloddan ikkinchisiga o'tishi;

b) rivojlantiruvchi, ya'ni oldingilar tajribalarini umumlashtirib, o'z tajribalaridan kelib chiqqan holda mavjud texnologiya bilan uyg'unlashtirish;

v) geshtal't, ya'ni ushbu texnologiya o'quvchining his tuyg'ularini qamrab oladi;

g) bixevioristik, bu texnologiya talabalarning tashqi hatti-harakatlariga asoslangan bo'ladi.

V. SHaxs xususiyatlarini rivojlanishiga qarab:

a) axborot texnologiyalar (bilim, malaka, ko'nikmani shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

b) operatsion texnologiya (fikrlash malakasini shakllantirishga qaratilgan texnologiya);

v) estetik-ahloqiy texnologiya.

g) boshqaruvchilik xususiyatini shakllantiruvchi texnologiya;

d) evristik texnologiya (ijodiy yondashuvni shakllantiruvchi texnologiya);

e) amaliy hatti-harakatlarni shakllantiruvchi texnologiya.

Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayonining hamma sohalarini qamrab oluvchi yaxlit tizim bo'lsa, o'qitish texnologiyasi ma'lum fanlarni hozirgi didaktik talablar asosida o'qitishning yaxlit tizimini tashkil qiladi.

Ularning o'zaro bog'liqligi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ishlab chiqilgan Davlat ta'lim standartlarida o'z ifodasini topgan.

1. Yangi pedagogik texnologiyaning metodik asoslari Davlat ta'lim standartlari bo'lib hisoblanadi. Davlat ta'lim standartlarida talaba egallash lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malakalar mezoni belgilab berilgan. Undan past bo'lmasligi kerak.

2. Pedagogik texnologiya va o'qitish texnologiyalarining maqsadi bitta: ijodiy tafakkur sohibini etishtirishdan iborat. Bu maqsad Davlat ta'lim standartlarining bosh talabidir. Ta'lim jarayonidagi har bir texnologiya, berilgan topshiriqlar o'quvchini ijodiy fikrlashga va ijodiy rivojlanishga olib kelsin. SHunday vaziyat yaratish kerakki,

o`quvchi-talaba o`z xohishi bilan izlansin,, tafakkurini rivojlantirsin, intilsin, unda fanni egallashga qiziqish uyg`onsin.


3.Har bir mashg`ulotda beriladigan topshiriqlar berilgan vaqtning 20-25%ni, o`quvchining ijodiy tafakkur asosida ish olib borishi 70-80% vaqt oralig`ida bo`lsin. O`quvchi ko`proq amaliy bilimlarni egallasin va undan nazariy xulosalar chiqara olsin.

4.O`qitish texnologiyasida bilim berish, bilim olish usulini tanlash va o`rganishga katta ahamiyat berish, bilim olish, bahs asosida amalga oshishini ta`minlash.

5. O`qitish usuli-texnologiyasi-yangi pedagogik texnologiyalarning asosi bo`lib hisoblanadi.

6.Ta`lim jarayonida darslarni, seminar, o`yin, disput, KVN va har xil teatrlashgan vaziyatlar asosida tashkil etish yoki ta`limda differentsiyalashni amalga oshirish lozim.

7.Ta`lim jarayoni tayanch bilimlarini amaliyotga tadbiiq etib, rivojlantirib borish, tizimli asosda bo`lishi yangi pedagogik texnologiya va o`qitish texnologiyalarining o`zviyligini ta`minlovchi - loqal (bitta yo`nalish) holatning samara berishiga olib keladi.



1-chizma. Pedagogik texnologiya tuzilishi.

Texnologik jadval- texnologik jarayonning shartli tasviri, uning alohida funktsional elementlariga bo'linishi va ular o'rtasidagi mantiqiy aloqalarning belgilanishi.

Texnologik xarita- jarayonni bosqichma-bosqich usulda ifodalash, bunda maqbul bo'lgan vositalar ko'rsatiladi (bu odatda grafik shaklda ifodalanadi).

Texnologik nuanslar- adabiyotda odatda pedagogik tizim tushunchasi pedagogik texnologiya sifatida ko'rsatiladi. Lekin pedagogik texnologiya kengroq ma'nodagi tushuncha bo'lib, o'ziga xos pedagogik faoliyatning ob'ekt va sub'ektlarini oladi.

Hozirgi ilmiy-texnik taraqqiyot asrida ta'limni texnologiyalashtirish oldiga bir qancha vazifalar qo'yadi.

Har bir dars ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadni amalga oshiradi.

O'quv jarayonida: motivatsiya, bilish faoliyati, boshqarish faoliyati kabi maqsadni amalgam oshiradi.

1.Motivatsiya - o'quvchilar diqqatini tortish, ichki tuyg'u istak, zaruratni shakllantirish, o'quv jarayonida asosiy harakatlantiruvchi kuch-o'quvchi va o'qituvchi uchun ham ichki motivatsiya bo'lishi kerak.

2.Bilish faoliyatiga e'tiborda asosan quyidagilarga e'tibor berish kerak: o'quvchilardagi tashabbuskorlik, mustaqillik, bilimlarni puxta o'zlashtirish, zarur malaka ko'nikmalar hosil qilish, tafakkur rivojiga e'tibor berish.


3.Boshqarish faoliyatini vazifalari shundan iboratki, o'qituvchi berilayotgan bilim, ko'nikma, malakalar tizimini qay darajada egallab bormoqda. Darsda qo'llanilayotgan texnologiyalarga, pedagogik texnologiya monitoringi (pirovard natijada) orqali baholanadi.

Pedagogik texnologiyaning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quv maqsadlariga kafolatli erishishda o'quv jarayoni loyihalashtiriladi va amalga oshiriladi. Texnologik yondashuv, eng avvalo, yuzakilikda emas, balki rejalashtirilgan natijasini olish imkonini beruvchi konstruktiv, ko'rsatmali sxemada o'z ifodasini topadi.

Maqsadga yo`naltirilganlik, jarayon natijalarini tashhisli tekshirish, ta`limni alohida o`rgatuvchi qismlarga bo`lib tashlash o`quv jarayonining qirralarini bugungi kunda ta`limni qayta ishlab chiqish tsikli g`oyasiga birlashtirish imkonini beradi. U asosan o`z ichiga quyidagilarni oladi.

- ta`limda umumiy maqsadning qo`yilishi;
- tuzilgan umumiy maqsaddan aniq maqsadga o`tish;
- o`quvchilarning bilim darajalarini dastlabki baholash;
- bajariladigan o`quv ishlarni majmuasi;
- natijani baholash.

Bundan ko`rinadiki, o`quv jarayoni «modulli» ko`rinishga kelib, turli mazmun bilan to`ldirilgan, umumiy tizimga mos holda ishlab chiqariladigan bloklar qismlardan iborat.




2-chizma. O`quv jarayonining modulli ko`rinishi.

O`quv jarayoni pedagogik texnologiya asosida tashkil etishning rejalashtirishda pedagogdan yuksak malaka talab etadi, materiallar tayyor bo`lgach, pedagog asosan tashkiliy va konsul`tativ vazifalarni bajaradi. Umumiy ko`rinishda pedagogik texnologiya tarkibiga quyidagilar kiradi:

- fanning identifikatsiyalashgan o`quv maqsadlarini ishlab chiqish;
- o`quv maqsadli shajarasi;
- o`quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga aylantirish;
- maqsadga erishish usullari;
- erishilgan o`quv maqsadlarini baholash.

Bu tarkibiy qismlarning har biri ma'lum yo'nalishdagi pedagogik operatsiyalar tizimini tashkil etadi.



3-chizma. Pedagogik texnologiya tarkibiy qismlari.

Pedagogik texnologiyani tushunishning asosiy yo'li aniq belgilangan maqsadlarga qaratilganlik, o'quvchi bilan muntazam o'zaro aloqani o'rnatishdir. O'zaro aloqa pedagogik texnologiya asosini tashkil qilib, o'quv jarayonini to'la qamrab olishi kerak.

Pedagog odatda, o'z oldiga o'quvchilar o'quv materialining mazmunini tushunib, o'zlashtirib olishsin, ma'lum bilimlarni egallab amaliyotda qo'llashga o'rgansin degan maqsadni qo'yadi.

Pedagogik texnologiyada o'quv maqsadlarini qo'yilishi o'zining ma'lum xususiyatlariga ega. Bu shundan iboratki, ta'lim maqsadlari o'quvchilar harakatida ifodalanadigan aniq ko'rinadigan va o'lchanadigan natijalar orqali belgilanadi.

SHunday qilib, maqsadlarni aniqroq, tayinli qo'yishning asosiy yo'li-ma'lum natija bilan yakunlanadigan harakatlarni ifodalaydigan fe'llardan foydalanishdir.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan yangi ta'lim tizimi qaror topdi. Bu jarayon bilan bir vaqtda pedagogik o'quv-tarbiya jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar, tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, pedagogik mentalitetlar o'rnatilmoqda.

Ta'lim tarkibi yangi protsessual mahoratlar, axborotlar bilan ishlash qobiliyatining rivojlanishi, ilmiy muammo va bozor amaliyotining ijodiy echimining ta'lim dasturlarini individuallashtirishga qaratilishi bilan boyitilmoqda.

Pedagogik ta'lim texnologiyalarning psixologik-pedagogik nuqtai nazardan takomillashuvining asosiy yo`nalishlari quyidagilar bilan ifodalanadi:

1) Yodlashdan eslab qolish funksiyasiga o`tish, ya'ni o`zlashtirilganini ishlatish imkonini beruvchi aqliy rivojlanish jarayoniga o`tish.

2) Bilimning assotsiativ statistik modelidan aqliy harakatning dinamik tarkibiy tizimlariga o`tish.

3) O`rtacha o`quvchiga yo`naltirilganlikdan o`qitishning differentsiallangan va individuallashtirilgan dasturlariga o`tish.

4) O`quvchining tashqi motivatsiyasidan ichki ma'naviy irodali tartibga solinishga o`tish.

Bugungi kunda texnologik savodli mutaxassis bo`lish uchun ta'lim texnologiyalarning hammasini o`rganish lozim.

Hozirgi vaqtda pedagogik lug`atda pedagogika tushunchasi mustahkam o`rnatilgan. Lekin uni tushunish va ishlatishda turli xil o`qilishi mumkin.

Pedagogik lug`atda pedagogik texnologiya tushunchasiga turli xil yo`llar bilan yondashilgan, shuning uchun bizning tushunchada pedagogik texnologiyalar har xil mualliflarning ta'riflarini umumlashtiruvchi sarmazmun yig`imdir. Pedagogik texnologiyani qaysi tomondan tahlil qilmaylik, uning asosi ta'lim samaradorligini oshirishga, ya'ni kam vaqt sarflab, ko`proq sifatli natijaga erishishga qaratilgan. Qo`llanadigan pedagogik texnologiya natijasi esa, birinchi navbatda, pedagogning mahoratiga, pedagogik klassifikatsiya turlaridan mohir foydalana olishiga, ilmiy-kasbiy tajribasiga, shaxsiy xususiyat hamda insoniy fazilatlariga bog`liq.


Yuqorida keltirilgan ta'riflar pedagogik texnologiya usulining mazmunini anglash va aniqlash jarayoni hali poyoniga etmaganligidan dalolat beradi. Bu masalaga oydinlik kiritish uchun, avvalo, pedagogik texnologiya usulining muhim belgilarini aniqlash talab etiladi. Pedagogik adabiyotlarni o`rganish va tahlil etish, pedagogik

texnologiyaning muhim xususiyatlari, belgilari qatorida quyidagilarni ko'rsatishga imkon beradi:


- ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va sinfda o'quvchilar bilan qayta ishlab chiqish;
- tizimli yondashuv asosida talabaning o'qish-bilish faoliyatini tasvirleydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish;
- ta'lim maqsadi real, aniq diagnostik bo'lishi va o'quvchining bilim o'zlashtirish sifatini ob'ektiv baholash;
- ta'lim jarayonining tuzilishi va mazmuni yaxlitligi, o'zaro bog'liq va o'zaro ta'sirda bo'lishi;
- ta'lim shakllarini optimallashtirish (qulaylashtirish);
- ta'lim jarayonida texnik vositalar va inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish;
- ta'lim maqsadlarini ko'zlagan etalon asosida o'quvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida juda oydinlashtirish;
- talabaning faolligiga tayanib o'qitish;
- bilim o'zlashtirish jarayonida yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, tuzatib borish;
- shakllantiruvchi va jamlovchi baholar;
- belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini bajarish;
- ta'limning rejalashtirilgan natijaga erishishning kafolatlanganligi;
- ta'lim samaradorligining yuqoriligi.

Xullas, pedagogik texnologiya-ta'lim usuli, ma'lum ma'noda ta'lim-tarbiya jarayonlari, vositalari, shakl va metodlari majmui. O'quv materiallarini tanlash, qayta ishlab o'quvchilarning kuchiga, o'zlashtirish xususiyatlariga moslab shakli, hajmini o'zgartirish ham ta'lim texnologiyasiga daxldor hisoblanadi.

Pedagogik texnologiya tuzilishi.



Pedagogik texnologiya tarkibiy qismlari.



Tuzatishlar (korreksiya) (Faqat xususiy o`quv maqsadlar uchun)

<i>Vaqt:2soat</i>	<i>Talabalar soni:14</i>
<i>O`quv mashgulotining shakli va turi</i>	Ma`ruza (axborotli)
<i>Ma`ruza rejasi (o`quv</i>	1.O`qitishning omillari.

<i>mashg'ulotining tuzilishi)</i>	2.O'quv jarayoni natijasining shakllanishini jamlab aniqlash (to'rtta bosh) omillari. 3. Pedagogik texnologiyaning ilmiy, tavsifiy va amaliy aspektlari.
<i>O'quv mashg'uloti maqsadi:</i> Pedagogik texnologiyaning ilmiy, tavsifiy va amaliy omillari xaqida talabalarni bilim va ko'nikmalarni chuqurlashtarish.	
<p><i>Pedagogik vazifalar:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> -Pedagogik texnologiyada innovatsion faoliyatning turli satxlari bilan tanishtirish; - Asosiy tushunchalarni tasnifini berish; -Pedagogik texnologiyada pedagogik asosiy omillarni tushuntirish; -Pedagogik texnologiyaning tuzilmasi mohiyatini ochib berish; -Texnologik jarayon -Izchillik, samaradorlik mezoni, qayta tiklash va mavzudagi boshqa tushunchalarni talabalarda shakllantirish. 	<p><i>O'quv faoliyati natijalari:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> -Pedagogik texnologiyada innovatsion faoliyatning turli darajalarini ko'rsatadilar; -Mavzudagi asosiy tushunchalarni tasniflaydilar; - Pedagogik texnologiyaning asosiy omillarini aytib beradilar; -Izchillik, samaradorlik mezoni, qayta tiklash va mavzudagi boshqa tushunchalarni talabalar o'zlarida shakllantiradilar; -Pedagogik texnologiyada innovatsion faoliyatning turli darajalarining mazmunini tartibli ravishda ochib beradilar
<i>Ta'lim usullari</i>	Ma'ruza, insert, aqliy hujum va boshq.
<i>Ta'lim shakli</i>	Frontal, jamoaviy, guruhlarda ishlash
<i>Ta'lim vositalari</i>	Ma'ruza matni, texnika vositalari va boshq.
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Maxsus texnika vositalari bilan jihozlangan, guruhli shakllarda ishlashga mo'ljallangan honalar
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: tezkor-so'rov va boshq. Yozma so'rov: referat, test va boshq.

O'quv mashg'ulotining texnologik xaritasi (jadval)


<i>Ish bosqichlari va vaqti</i>	Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchilar Faoliyati
1 - bosqich. O'quv mashg'ulotiga kirish (10 dak.)	<p>1.1. Mavzuning nomi, maqsad va kutilayotgan natijalarni yetkazadi. Mashg'ulot rejasi bilan tanishtiradi.</p> <p>1.2. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarni; mustaqil ishlash uchun adabiyotlar ro'yxatini aytadi.</p> <p>1.3. O'quv mashg'ulotida o'quv ishlarini baholash mezonlari bilan tanishtiradi</p>	<p>Tinglaydilar, yozib oladilar.</p> <p>Aniqlashtiradilar, savollar beradilar.</p>
2 bosqich. Asosiy (60 daq.)	<p>2.1. Tezkor-so'rov/ savol-javob/ akliy hujum orqali bilimlarni faollashtiradi.</p> <p>2.2. Ma'ruza/ seminar/ amaliy mashg'ulotning rejasi va tuzilishiga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish bo'yicha harakatlar tartibini bayon qiladi.</p>	<p>Javob beradilar. Yozadilar.</p> <p>Guruhlarda ishlaydilar, taqdimot qiladilar va bosh.</p>
3 bosqich. Yakuniy (10 daq.)	<p>Z.1.Mavzu bo'yicha yakun qiladi, qilingan ishlarni kelgusida kasbiy faoliyatlarida ahamiyatga ega ekanligi va muximligiga talabalar e'tiborini qaratadi.</p> <p>3.2. Baholash: Guruhlar ishini rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida</p>	<p>O'z-o'zini, o'zaro baholash-ni o'tkazadilar.</p> <p>Savollar beradilar.</p> <p>Topshiriqni yozadilar</p>

	baholash, o'quv mashg'ulotining maqsadga erishish darajasini tahlil qiladi. 3.3. Mustaqil ish uchun topshiriq beradi va uning baholash mezonlarini yetkazadi.	
--	--	--

Pedagogik texnologiya natijalari

Pedagogik texnologiya natijalari uning barcha ishtirokchilariga tegishli bo'lib, quyidagi sxemada eng asosiy ishtirokchilar bo'lgan o'qituvchi va o'quvchi uchun tegishli jihatlari qisqacha ko'rsatilgan:

Bu sxemadan pedagogik texnologiya natijasining eng asosiy ko'rsatkichi o'quvchi hamda o'qituvchi uchun raqobatbardoshlikni ta'minlash ekanligi ko'rinib turibdi. Ularning raqobatbardoshligiga yerishish orqali esa pedagogik jamoaning raqobatbardoshligi ta'minlanadi.



Pedagogik texnologiya natijalarini nomlashda boshqa texnologiyalarga taqlidan baʼzan mahsulot deb atash hollari uchraydi. Bizningcha, bunday natijani pedagogik mahsulot yoki pedagogik natija deb nomlash mumkin. SHu bilan birga, aytish kerakki, oliy taʼlim bosqichida bu masala hal boʻlganligi, yaʼni bu taʼlim bosqichlarning yakuniy mahsuloti bakalavr hamda magistr deb nomlanishi maʼlum. Lekin taʼlim sohasidagi qolgan quyi bosqichlarning yakuniy mahsulotlari uchun hozirda tegishli nomlar belgilanmagan boʻlib, bu masala oʻz yechimini kutmoqda.

Agar oʻqituvchining tayyorgarligi, yaʼni uning bilimdonhgi hamda pedagogik mahorati doimo talab darajasida hamda oʻquvchining qiziqishi, diqqatini jamlashi va eslab qolishi doimo yuqori darajada boʻlganda edi, taʼlim-tarbiya jarayonida istalgan usuldan foydalanganda ham yuqori natijaga enshish mumkin edi. Lekin bu koʻrsatkichlar tez oʻzgaruvchan boʻlib, pedagogik jarayonni ana shu oʻzgarishlarni

hisobga olgan holda olib borish eng zarur shartlardan hisoblanadi. Aks holda ta'lim-tarbiya jarayonidan ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

SHuning uchun "0106 Support vali" detaliga mexanik ishlov berish texnologik jarayonini va operatsiyalarda ishlatiladigan moslamalar mavzusini yangi pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqishda turli shakl va usullari takomillashtirib kelinmokda. Bu shakl va usullarning har biri yuqorida aytilgan yagona asosiy maqsadga intilgani holda, aslida esa uni ko'zda tutilganga nisbatan kamroq darajada, ya'ni ma'lum biror yo'nalishda hamda mavjud imkoniyatlarga muvofiq darajada bajarishga erishilmokda.

Bundan ko'rinadiki, har bir shakl va usuldagi pedagogik jarayon ma'lum afzalliklar bilan bir qatorda yetishmovchiliklarga ham ega.

SHu munosabat bilan ilg'or pedagogik texnologiyalarga hamma davrlarda ham jiddiy ehtiyoj mavjud bo'lgan. Ular orasida turli maqsadlar uchun qulay, noqulay, samarali, kam samarali yoki samarasiz ta'lim-tarbiya texnologiyalari uchraydi.

7.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning 1997 yil 29 avgust kungi "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi to'g'irisida" gi qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta Maxsus talim vazirligining 1998 yil 9 yanvar kungi "Kadrlar tayorlash Milliy dasturi talablari asosida o'quv yurtlarida tarbiyaviy ishlarini yanada takomillashtirish to'g'irisida" gi 3-sonli buyrug'i.
3. Gel'fgat Yu. I. Sbornik zadach i uprajneniy. Texnologii mashinostroeniya. M. : "Vysshaya shkola" 1975-240 s.
4. Gorbatsевич A. F, SHkred V. A. Kursovoe proektirovanie po texnologii mashinostroenie. M. : Vysshaya shkola, 1983-256s.
5. Kasilova A. G, Mesheryakov R. K. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-2, M. : Mashinostroenie, 1985-496s.
6. Kasilova A. G, Mesheryakov R. K. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-1, M. : Mashinostroenie, 1985-656s.
7. Malov A. N. Spravochnik texnologa mashinastroitelya. T-3, M. : Mashinostroenie, 1972-568s.
8. Goroshkin A. K. Pripособleniya dlya metallorejushix stankov. Spravochnik-M. : Mashinostroenie 1979-303s.
9. Dals'kiy A. M. Texnologiya mashinostroeniya. T-1, Osnovy texnologii mashinostroenie. M. : MGTU im N. E. Baumana, 2001-563s.
10. I. M. Belkin. Spravochnik po dopuskam i posadkam dlya rabocheho mashinastroitelya-M. :Mashinostroenie, 1985-320s.
11. Malaxov G. A. Obrabotka metallov rezaniem. Spravochnik texnologa. M. : Mashinostroenie, 1974-598s.
12. Mashinasozlik texnologiyasi fani bo'yicha kurs loyihasini bajarish uchun uslubiy ko'rsatmalar. Farg'ona 2007 y.
13. Mel'nikov GyuN. Texnologiya mashinostroenie. T-2, Proizvodstvo mashin. M. : MGTU im N. E. Baumana, 2001-639s.
14. Mirzaev A. A, Sotvoldiev A. E. Mashinasozlik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. Farg'ona-Texnika, 2002-156 b.

15. Nefyodov N. A, Osipov K. A. Sbornik zadach i priĕerov po rezaniyu metallov i rezhushemu instrumentu–M. : Mashinastroenie, 1990–448s.
16. Omirov A, Qayumov A. Mashinasozlik texnologiyasi. Toshkent. : “O’zbekiston”, 2003-379b.
17. Panov A. A, Anikin V. V. Obrabotka metallov rezaniem. Spravochnik texnologa-M. Mashinostroenie, 1988-736s.